



KONCHILAR HAYOTI

Gazeta 1991-yildan chiqa boshlagan

№13 (799), 2025-yil 15-iyul

facebook.com/nmkofficialt.me/ngmkofficialinstagram.com/nmk.officialwww.ngmk.uz

■ Dolzarb mavzu

“Konchilar hayoti” gazetasi tomonidan kon va metallurgiya sohalaridagi o‘zgarishlar, kelajakdagi rejalar, yangilanishlar va islohotlar mohiyatini ochib berishga harakat qilib kelmoqda. Ushbu an‘anani davom ettirgan tarzda bu galgi suhbatdoshimiz – “NKMK” AJ Transport boshqarmasi boshlig‘i Mashrab Isroilov quyidagilarni bayon qildi:

quvvatlari barqarorligini ta‘minlash va yangi loyihalar-ni amalga oshirish maqsadida, 2025 yilda investitsion loyihalar doirasida yuk ko‘tarish quvvati 55 tonnadan 254 tonnagacha bo‘lgan og‘ir yuk tashuvchi avtoag‘-dargichlardan 70 donaga yaqin, avtogreyder, frontal yuklagich, g‘ildirakli va zanjirli buldozer kabi yo‘l-quri-

TRANSPORT SOHASI – IQTISODIYOTNING QON TOMIRI

Navoiy kon-metallurgiya kombinatida transport sohasining o‘rni beqiyosdir. Ayni paytda sohada 10 ming nafarga yaqin ishchi-xizmatchilar mehnat qilib, 4 mingdan ziyod turli rusumdagi texnikalar, jumladan, harakat tarkibida 497 ta og‘ir yuk tashuvchi avtoag‘dargichlar, 320 ta yo‘l-qurilish mashinalari, 580 ta maxsus avto-transport vositalari, 404 ta avtobus va 380 ta yengil xizmat avtomobillari mavjud. Ayniqsa, kombinatda qudratli yuk tashish texnikalari imkoniyatlaridan yuqori unum bilan foydalanilayotgani quvonarlidir. Bundan tashqari, kombinat tizimida Transport boshqarmasi, hududiy boshqarmalardagi transport bo‘limlari, 3 ta Avtomobil transporti boshqarmasi, 18 ta avtokorxona, avtotransport ta‘mirlash hamda ichki yonuv dvigatellarini ta‘mirlash sexlari faoliyat olib bormoqda. Bugun ular kombinatda katta hajmda yuk va yo‘lovchi tashish ishlarini bajarmoqda. Birgina joriy yilning o‘tgan olti oyida 129,03 million kubometrga yaqin tog‘ jinslari belgilangan manzillarga tashilib, reja ortig‘i bilan bajarildi.

Davriming tezkor rivojlanishi natijasida har jihatdan tejamkor, unumdor og‘ir yuk tashuvchi va tog‘-kon texnikalari kirib kelmoqda. Kombinativ ham ulardan samarali foydalanish uchun har yili bu kabi texnikalarni olib kelinib, ishlab chiqarishga yo‘naltirmoqda. Joriy yilning o‘tgan davrida yuk ko‘tarish qobiliyati 55 tonnadan bo‘lgan 4 dona “Komatsu HD465”, 90 tonnalik 4



dona “SAT777” va 23 dona “Komatsu HD785” og‘ir yuk tashuvchi avtoag‘dargichlar xarid qilingani fikrimizga yaqqol misoldir.

Bundan tashqari, ishlab chiqarish va yuk tashish

lishi mashinalaridan 40 donaga yaqin, turli vazifalarni bajarishga mo‘ljallangan maxsus transport vositalaridan 30 donadan ortiq keltirish rejalashtirilgan.

[Davomi 2-betda](#)

■ Konchilar faoliyatidan

“BALPANTOV”NING SHIJOATLI YOSHLARI

Qizilqum kengliklari... Qishda sovuq shamollar etni junjiktirsa, yozda issiq va dim havo nafasingizni qisadi. Ammo bu erda tabiat inijliklarini nazar pisand etmay, kechani-kecha, kunduzni-kunduz demay mehnat qilayotgan soha xodimlari borki, ular bugunning qahramonlaridir. Quyoshning tafti, sovuq izg‘irinar yuzlariga o‘z aksini solgan, ammo ko‘zlarida hamisha shijoat, o‘z kasbiga bo‘lgan mehr ufurib turgan odamlar. Ular mehnatidan baxt, hayotidan zavqu shavq topib yashayotgan konchilar...

Ayni vaqtda “Beshapantov” koni tarkibidagi “Balpantov” kar‘erida ish qizg‘in. Tunu kun burg‘ilash, qazish va tashish ishlari olib borilmoqda. Oltin zaxirasiga boy konni qazish ishlariga yaqin joydan ko‘rishning zavqi boshqacha. Bir tomondan uning devorlari, boshqa tomondan, ulkan yuk tashish mashinalari haybati oldida inson o‘zini bir zarradek his etadi. Kunga kirishdan oldin har bir kishiga beriladigan maxsus ish kiyimlarida esa odam o‘zini go‘yo tog‘ jinslarini qazib olishga tayyor konchidek his qiladi. AQSh, Yaponiya, Shvetsiya, Germaniya davlatlaridan keltirilgan ekskavator, avtoag‘dargich, burg‘ilash uskunalarini boshqarayotgan haydovchilar orasida o‘n besh-yigirma yillik tajribaga ega insonlar bilan birga yoshlar ham bor. Sa-farmurod Zoirov ana shunday shijoatli yoshlardan biri. Hozirda u “Balpantov” kar‘erida ma‘danni qazib olish jarayonining faol ishtirokchisi. Navoiy konchilik kollejinii tugatgandan so‘ng Markaziy kon boshqarmasining O‘quv markazida gidravlik kon ekskavatorini boshqarish bo‘yicha bilim va ko‘nikmalarini oshirgan Safarmurod joriy yildan boshlab 8-razradli ekskavator mashinisti vazifasida ishlab kelmoqda.

“Yoshligimdan konchilik va kon texnikalariga, asosan, katta texnikalarni boshqarishga qiziqardim. Ilk ish boshlagan paytlarimda kovshining hajmi 18-19 kubometr bo‘lgan gidravlik ekskavatorlarini boshqarganman. Avval mashinist yordamchisi, so‘ng mashinist bo‘lib ishlab kelmoqdaman. Hozir men

boshqarayotgan ekskavatorning og‘irligi 108 tonna, kovshining hajmi esa 7 kubometr bo‘lib, soatiga o‘rtacha 650 tonna ma‘dan yuklayman. Ochig‘i, sira qiynal-mayman, uni boshqarish juda qulay. Ichki qismida barcha sharoitlar yaratilgan. Qishda issiq, yozda salqinni ta‘minlaydigan konditsionerlari bor. Mashinaga ratsiya qurilmasi o‘rnatilgan. Ish tartibi shu ratsiya orqali boshqarib turiladi. Bu samaradorlikni oshiryapti. Kunlik normani ortig‘i bilan bajaryapmiz, – deydi S.Zoirov.

Zamonaviy texnikalarning aksariyatini yoshlar boshqarishayapti. Kon-metallurgiya sanoatining jadal sur‘atlarda rivojlanishi natijasida yosh kadrlarga bo‘lgan talab ham ortib bormoqda. Shuni hisobga olgan holda kadrlarning

malaka toifasini doimiy oshirishni ko‘zlab, O‘quv markazida ochiq kon ishlarini tashkil etish va takomillashtirish bo‘yicha ekskavator, buldozer, burg‘ilash mashinistlari, og‘ir yuk tashuvchi avtomobillar haydovchisi, portlatuvchi, texnologik jarayonlar uchun sozlovchi chilar-kabi mutaxassislar tayyorlanib, ishlab chiqarish uzviyligi ta‘minlanmoqda.

– “Balpantov” karyerida 2022-yildan qazib olish ishlarining boshlanishi yangi ish o‘rinlarini ochish bilan birga, yurtimiz iqtisodiyotini yuksaltirmoqda, – deydi “Beshapantov” koni bosh muhandisining kon ishlari bo‘yicha o‘rinbosari Furqat Jumayev. – Ushbu konda 40 million tonnadan ziyod oltin ma‘danli zaxiralar aniqlangan bo‘lib, undagi oltinning miqdori 50 tonnadan ortiqni tashkil etadi. Kondan yiliga 10 million kubometrga yaqin kon massasi qazib olinadi. Rejalarni bajarish maqsadida 4 ta gidravlik ekskavator, 5 ta burg‘ilash qurilmasi, 35 ta og‘ir yuk ko‘taruvchi avtoag‘dargich, 2 ta teplovov va 50 ga yaqin kon ishlab chiqarish texnikalari hamda 400 nafar ishchi-mutaxassislar jalb etilgan.

“Faoliyatimizni kuzatgan aksariyat kishilarga sohada mehnat qilish mashaqqatdek tuyuladi. To‘g‘ri, hamisha noqulay cho‘l ob-havosida mehnat qi-

lishga to‘g‘ri keladi. Ammo, o‘z kasbini sevgan insonga mashaqqatlar ham huzur, qaysidir jihatlar bilan kuch, sabot bag‘ishlaydi. Buni shu sohada mehnat qilayotganlar yaxshi anglaydi”, – deydi “Balpantov” karyeri kon ustasi Ozodjon Rahimov. – 2017-yilda hozirgi Navoiy davlat konchilik va texnologiyalari universitetini tamomlagach, “Muruntov” koni portlovchi moddalar ishlab chiqarish zavodida ilk ish faoliyatimni boshlagan edim. Mana 8 yildirki, hayotim ana shu konchilar orasida o‘tyapti.

Ozodjon Rahimov singari salohiyatli yoshlarga ustozlarning oltinga teng o‘g‘itlari, sohada yaratilayotgan qator imtiyoz va imkoniyatlar qanot bo‘layotgani ham bor gap. Qizilqum kengliklarida yilning to‘rt faslida ham mehnat qilayotgan metin irodali bu konchilar haqiqiy mo‘jiza yaratuvchilardir.

Konda barcha ishlar tizimli ravishda olib borilmoqda. Bu yerda har bir kishining o‘z vazifasi bor. Ishlar xuddi soatdek aniq va ketma-ketlikda amalga oshiriladi. Maqsad esa tezroq asosiy ma‘dan qatlamiga yetib borish va yirik oltin konini ochishga qaratilgan.

Nafosat ZIYOYEVA.
Suratlar muallifi
Dilshod BOBOMURODOV.

■ Adabiyot

ZOMIN – YOSH IJODKORLARNING MULOQOT MAYDONI

Joriy yilning 7-9-iyul kunlari yangi O‘zbekiston adabiyotining navqiron avlodi tarovatli Zomin tog‘lari bag‘ridagi “NKMK” sihatgohiga to‘plandi. Milliy adabiyotimizning yosh vakillari jo‘shqin ijodning qo‘ynida yashashdi, ustozlar tarbiyasida yangi ruhda qalam tebratishni o‘rganishdi. Go‘yoki bu jarayonni kuzatib turgan O‘zbekiston xalq shoiri Abdulla Oripov yoshlarga havas bilan yozganidek, *“Iste‘dod oldida past tushar osmon, Koinot o‘z sirin aylagay foshki. Yuksak parvozingga keltirgum iymon, Sening kamolingni ko‘rsaydim, koskhi.”*

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev “Yosh ijodkorlarning mustaqil Vatan adabiyotiga Jizzax diyoridan qo‘yayotgan qadamlari qutlug‘ bo‘lsin!”, deb bildirgan ezgu tilaklari bugungi kunda mazkur seminarining mazmun-mohiyatini belgilovchi ustuvor g‘oyaga aylandi. Seminar har bir tadbiri yoshlar uchun chinakam bayramga aylandi. Mazkur seminar O‘zbekiston Yozuvchilar uyushmasi, Respublika Kasaba uyushmalari federatsiyasi, Xalq banki, Navoiy kon-metallurgiya kombinati, Jizzax viloyati hokimligi, O‘zbekiston Milliy teleradio-kompaniyasi hamkorligida tashkil etildi. O‘zbekiston Yozuvchilar uyushmasi raisi, O‘zbekiston xalq shoiri Sirojiddin Sayyid, Jizzax viloyati hokimining o‘rinbosarlari Sardor Shukrullayev, “NKMK” AJ Jamoatchilik bilan aloqalar bo‘yicha

direktor Xolmamat Raupov va boshqalar davlatimiz rahbari tashabbusi bilan tashkil etilgan Zomin seminarini ijodkor yoshlarning havas qilishiga arzigulik ma‘rifiy loyihaga aylanganini e‘tirof etishdi.

– Oradan o‘n, yigirma, o‘ttiz yillar o‘tar, lekin Zomin seminarini yoshlarimizning qalbidagi bir umrga qoladi, – dedi Yozuvchilar uyushmasi raisi Sirojiddin Sayyid. – Yurtimiz adabiy hayotida, adabiy jarayon va jamoatchilik orasida, ayniqsa yosh ijodkorlar uchun nufuzi va maqomiga ko‘ra, tom ma‘noda adabiyot bayramiga aylangan Zomin seminarini yoshlarga imkoniyat yaratish yo‘lida o‘ylangan xayrli tashabbus sababli an‘anaviy tus oldi va uning aks-sadosi butun mamlakatimiz bo‘ylab yayilib ketdi.

[Davomi 3-betda](#)

■ Publitsistika



Xizmat mashinasida qaydasan Qizilqum sahrosi, deya yo‘lga otlandik. Yo‘l – fikrlash va idrok qilish imkoniyati. Yoshimiz ellikni qoralab qoldi. Siyraklashgan sochimiz ham ko‘karib, o‘tmishni tez-tez yodga oladigan, oq va qoraning farqiga borib, hayotning past-balandidan xabardor bo‘ldik. Shunday ekan, ellik yoshli shaxs sifatida hayot haqida fikr yuritishga ma‘nan haqqimiz bor!

SUKUNAT – DAHSHATLI HAYQIRIQ!

Yoz jaziramasi zabtiga chiqqan. Avtomobil oynasidan kirayotgan garmisel butun tanani qizdiradi. Mashina saloni isiq emasmi, tashnalikni qondirish uchun suv ichishni kanda qilmaymiz. Ulovimizning oynasidan sahro manzaralariga nihoyat tashlaymiz: mavhumlik va sirlik! Ozuqasini maroq bilan chaynayotgan tuyalar ham, saksovol shoxida “tosh qotgan” cho‘l kaltakesaklari ham, bir parcha et ilinjida ko‘kda varrakdek chayqalayotgan kalxatlar ham e‘tiborimizni tortmaydi. Bu jonzotlar surati va garmselning sukunati idrokimizni allalayotgandek edi. Bu – jaziramada qovjirayotgan Qizilqumning sukunati edi. Sahrodagi sukunat esa, eng dahshatli hayqiriqdir. Biz qush uchsa qanoti, odam yursa oyog‘i kuayadigan Qizilqum sahrosi markazidagi M-39 avtomobil yo‘lining Konimex tumani hududidan o‘tuvchi Navoiy va Zarafshon shaharlarini bog‘laydigan bepoyon sahro bo‘ylab ketib borayapmiz.

Oxiri ko‘rinmas yo‘l. Zamon o‘zgar-gani bilan makon o‘sha-o‘sha. Bunday paytda butun borliq, insoniyat haqida idrok qilasan, olis va yaqindagi yuz bera-yotgan voqealar borasida fikr yuritasan. Shuur va ko‘ngil manfaatlar to‘qnashgan savdogarlar singari tinchlik bermaydi.

Dunyoy shiddat bilan o‘zgarmoqda.

Odam avlodi bir qarich yer talash, mulk talash, qon talash. Bunday chog‘da yur-timizdagi tinchlikning har oni g‘animat-dek, qadrlidek tuyilaveradi kishiga.

Yana o‘ylab qolamiz: dunyo soxtalik va hissizlikka to‘lib bormoqda. Insoniy his-tuyg‘ular, qalb yorug‘ligi xiralashgan-dek... Shunday o‘ylar qurshovi va mashinamizning tebranishida ko‘zimiz ilinibdi. Uyg‘onsak, quyosh tig‘i bo‘yi bo‘lganini, “Qizilqum fosforit kompleksi” mas‘uliyati cheklangan jamiyati korxonasi yongina-sidan o‘tib ketayotganimizni ko‘rdik.

Aytgancha, biz qayerga va nima maqsadda ketayotganimizni hali ayt-mabmiz. Navoiydan bu yerlarga bejiz qora tortmadik. Maqsadimiz “Qizilqum” kon boshqarmasiga qarashli “Arslontov” konida ishlovchi oddiy konchilar mehnati va hayoti bilan tanishish, borini yozish.

Yo‘l bo‘yi xayolga turli savol kelave-radi: konchilik yumushmi yoki kasb? Yumush bo‘lsa, nega bu yumushni ularning avlodlari davom ettirishga zo‘r beradiyu Qizilqum havosini bir olgan konchilarni uni tark eta olmaydi? Kasb bo‘lsa, nega nafi ulug‘, e‘tirofi nafi singari emas? Savol ortidan savol tug‘iladi... Uzoq yo‘l bo-sib, nihoyat manzilga yetib kelganimizni “Arslontov” kar‘eri yonida mashinasini to‘xtatgan haydovchimizning gapidan ilg‘aymiz: “Mana, yetib keldiki”.

[Davomi 3-betda](#)

■ **Dolzarb mavzu**



TRANSPORT SOHASI – IQTISODIYOTNING QON TOMIRI

❏ **Oxiri. Boshlanishi 1-betda**

Og'ir yuk tashuvchi va tog'-kon texnikalarini texnik soz holatda saqlashda yoqilg'i-moylash mahsulotlarining sifati bo'lishi muhim ahamiyat kasb etadi. Yoqilg'i-moylash mahsulotlarining sifati nazorat qilish ishlarini Markaziy va Shimoliy kon boshqarmalarining Avtomobil transporti boshqarmalari tarkibidagi Yoqilg'i-moylash mahsulotlari laboratoriyalari bajarib kelmoqda.

Keyingi yillarda talab va ehtiyojdan kelib chiqib, kombinatda transport boshqarmasi va uning tarkibida avtotransport vositalarini ta'mirlashni muvofiqlashtirish bo'limi, Avtotransport vositalaridan foydalanish va yoqilg'i-moylash materiallarini muvofiqlashtirish bo'limi va Yo'l harakati xavfsizligini muvofiqlashtirish xizmati, shuningdek, Markaziy kon boshqarmasi hududida Ichki yonuv dvigatellarini ta'mirlash sexi, Ichki yonuv dvigatellarini ishlashini monitoring qilish va ta'minlash guruhini tashkil etildi. Ayni paytda Rezinaslangli yuqori bosimli gidravlik shlanglar ishlab chiqarish uchastkasini tashkil etish choralari ko'rilmogda.

Atrof-muhit muhofazasini ta'minlash maqsa-

dida, "Kombinatda 2023-2025-yillarda elektromobillar, gibrid transport vositalarini joriy etish" loyihasi qabul qilindi va unga asosan hozirda zamonaviy avtotransport vositalari hisobiga kombinat transport parki bosqichma-bosqich yangilanmoqda. Misol uchun, 2024-yilda avtoparklarga Jizzax avtomobil zavodida ishlab chiqarilgan 44 dona elektromobil va gibrid avtomobillari keltirildi. Joriy yilda esa xuddi shunday 19 dona zamonaviy transport vositalari keltirish ko'zda tutilgan.

Ish unumdorligini oshirish, yoqilg'i sarfini kamaytirish, ortiqcha xarajatlarning oldini olish, avtotransport vositalarini nazorat qilish maqsadida, sohamiz bosqichma-bosqich raqamlashtirilmogda. Bugungi kunda barcha avtotransport bo'linmalarida "Auto Call-Center", "Avtomobil nazorati", "Videoeqran" va "Avtobuyurtma" kabi elektron tizimlar joriy etildi. Ayni paytda esa yangi loyiha - "1S:TOiR" (1S:Texnik xizmat ko'rsatish va ta'mirlash) dasturiy platformasida axborot tizimini ishga tushirish ustida ish olib borilmogda. Bu, transportlarga texnik xizmat ko'rsatish va ta'mirlash jarayonlarini rejalashtirish, omborxonalarda mavjud ehtiyot qismlar, sarf materiallari, yoqilg'i-moylash mahsulotlari hisobini yuritish imkonini beradi.

Ehtiyoj uchun zarur bo'lgan tayyor mahsulotlar, butlovchi buyumlar va materiallarni mahalliyashtirish bo'yicha qator ishlar amalga oshirilmogda. Bu borada "Gidrostankoservis", "Navoiypromlitmash", "Vodiy energomash mexanika", "SDK group", "Gauch", "Jizzax akkumulyator zavodi", "Elmash", "Drillflot asia", "O'zelektroapparat", "Carbon - polymer", "Stalmet group service" kabi tadbirkorlik hamda mahalliy ishlab chiqaruvchilar bilan hamkorlikda ishlar olib borilmogda.

2025 yilda ishlab chiqarish tannarxini kamaytirish va yoqilg'i moylash materiallaridan oqilona foydalanish maqsadida chora-tadbirlar rejasini ishlab chiqilib, unga ko'ra, jami 18 ming 647 tonna dizel yoqilg'isi hamda 235 tonna benzin iqtisod qilinishi ko'zda tutilgan. 2025 yil birinchi yarim yilligida 9 ming 700 tonna dizel yoqilg'isi, 125 tonna benzin iqtisod qilinishi kutilmogva

Suhbatni Dildora KARIMOVA uyushtirdi.

■ **Mahalliyashtirish**

IQTISODIY BARQARORLIK KAFOLATI

Yurtimizda olib borilayotgan keng ko'lamli iqtisodiy islohotlar jarayonida mahalliyashtirish alohida ahamiyat kasb etmogda. Xususan, strategik sohalarda ichki imkoniyatlardan samarali foydalanish, import o'rnini bosuvchi mahsulotlar ishlab chiqarishni kengaytirish va texnologik mustaqillikka erishish maqsadida mahalliyashtirishga katta e'tibor qaratilayotir. Markaziy kon boshqarmasida ham bu yo'nalish bo'yicha keng ko'lamli ishlar olib borilib, iqtisodiy barqarorlikni ta'minlashga erishilmogda.

– Kon boshqarmasida ehtiyot qismlarni mahalliyashtirishdan asosiy maqsad – ishlab chiqarish jarayonlarida mahalliy xomashyo, butlovchi qismlardan foydalanishni kengaytirish, chuqur qayta ishlash-

ni yo'lga qo'yish, shu orqali yuqori qo'shimcha qiymatga ega mahsulotlar olish va texnologik xarajatlarni kamaytirishdir, – deydi kon boshqarmasi Mahalliyashtirish va hamkorlikni kengaytirish xizmati

muhandisi Sharifjon Fayziyev. – Bu, korxonaning raqobatbardoshligini oshirish, ishlab chiqarish xarajatlari n qisqartirish va eksport salohiyatini kengaytirish imkonini beradi. O'tgan 2024-yilda kon boshqarmasida 6 ta yangi loyiha bo'yicha 9 milliard 404 million 300 ming so'mlik, kengaytirilgan 8 ta loyiha bo'yicha 48 milliard 274 million 400 ming so'mlik mahsulotlar ishlab chiqarilgan bo'lsa, joriy yilda 8 ta yangi loyiha bo'yicha 149 milliard 644 million 800 ming so'mlik, shuningdek, 8 ta kengaytirilgan loyiha bo'yicha 58 milliard 305 million 200 ming so'mlik mahsulotlar ishlab chiqarish rejalashtirilgan.

Bugungi kunda turli xil rusumdagi ekskavator, burg'ilash uskunalari, konveyerlar, zavod va konlar uchun texnologik uskunalarining

ehtiyot qismlar, emulsion portlovchi moddalar ishlab chiqarish bilan birga vagon avtoag'dargichlarni kapital ta'mirlash ishlari ham mahalliyashtirilmogda. Natijada ayrim ehtiyot qismlar va ehtiyojlarni qoplashda eksportga bog'liqlik kamaydi, ta'minot muddatlari qisqarib, ishlab chiqarishda uzluksizlik ta'minlandi. Shu bilan birga, ilm-fan bilan ishlab chiqarish o'rtasida bog'liqlik kuchayib borayotgani yaxshi samara beryapti.

Kon boshqarmasida mahalliyashtirishga e'tibor berilayotgani nafaqat iqtisodiy samaradorlikni oshirish, balki milliy ishlab chiqarishni rivojlantirish, yangi ish o'rinlari yaratish, texnologik mustaqillikka erishishda yangi istiqbollar ochib beryapti.

Aziza IRISOVA.

■ **Oramizdagi odamlar**

“DOVG‘ISTOV”NING BOTIR O‘G‘LONI

O'quvchilik yillari konda ishlash xayolida ham bo'lmagan qahramonimiz maktabni tamomlagach, adabiyot fani o'qituvchisi bo'lishni orzu qilgan edi. Ustozi Hayit Safarov uning qoralama she'rlarini tuzatarkan, adabiyotning sirli olamiga mahliyo qilardi.

Bitiruv oqshomidan keyin katta hayot ostona-siga qadam qo'ydiyu yetti nafar farzandini bir o'zi ishlab boqayotgan otasini ko'z oldiga keltirdi. U oliy ma'lumotli bo'lish qaroridan voz kechdi. Maktabda she'rlar mashq qilishi uni tengdoshlaridan biroz mashhurroq qilgan bo'lsa ham ota kasbi-ga bo'lgan qiziqish Botirni haydovchilik maktabi tomon chorladi. Tuman markazidagi haydovchilar tayyorlash kursida qariyb bir yil o'qidi va o'n to'qqiz yoshida Uchquduqqa kelib, Shimoliy kon boshqarmasida kon texnikalarini boshqarish ilmini o'rganishga kirishdi. Dastlab rahbariyat unga 40 tonnalik avtoag'dargichni ishonib topshirdi. Keyinchalik 90 tonnalik yuk ko'tarish quvvatiga ega avtoag'dargichlarni boshqardi. Shunga ham 28 yil bo'libdi. Hozirgi kunda Botir Nurullayev xalqning iborasi bilan aytgandagina Shimoliy kon boshqarmasida "Belazchi".

Uni yaqindan tanimagan kishilar yozgan she'rlarini o'qib shoir deydi. Chunki Botir Nurullayev yozgan she'rlarning o'zi bir kitob. Sport arenalarida raqib yelkasini yerga tekkijsa, kurashchi sportchi deb taniydi. Sababi u yoshligidan kurash bilan shug'ullangan. Hozirda sport ustaligiga nomzod. Biroq o'zi mehnat qilayotgan "Dovg'istov" konidagilar uni mohir haydovchi sifatida tan olishadi. Bu bejizga emas... U 90 tonnalik Komatsu rusumli avtoag'dargichda har kuni 400 metrlik kon qaridan ma'dan tashiydi.

Botir va jamoadoshlarining yurar yo'llari – kar-yer yo'llari. Unda na svetofo-r, na DAN xodimi bor. "Ammo tartibbuzarning o'zi yo'q. Chunki bu yerda xavfsizlik eng muhim sanaladi. Me'yordagi tezlik soatiga 40 kilometrdan oshmasligi belgilangan. "NKMK" AJda texnika xavfsizlik qoidalariga rioya qilmasangiz, qay darajadagi xodim bo'lishingizdan qat'iy nazar ogohlantirilasi.



Har kuni ish soatimizni boshlashdan oldin naryad topshirig'i olamiz. Maxsus kiyimlarimizdagi "NKMK" yozuvi mas'uliyatimizni yanada oshiradi. Aslida ham kon texnikalarida belgilangan tezlikni oshirish xavfli", – deydi Botir.

Ishiga ehtiyoqli bo'lgan odamning barakasi bo'ladi. Botir Nurullayev ishlayotgan "Dovg'iztov" koni kombinatning ilg'or va istiqbolli konlaridan bo'lib, korxonada 700 nafar ishchi-xodim mehnat faoliyatini olib bormogda. Tog'-kon ishlari "Qoqpatas" va "Dovg'iztov" konlaridan oltinli sulfidli ma'dan qazib olish karyerlarining 3-bosqichi" ishchi loyihasi doirasida 14 ta sulfidli karyerlarda bajarilyapti. Bu yil kondon 45 million kubometrdan ziyod kon massasi qazib olish rejalashtirilgan. Bu, o'tgan yilgidan 25 foiz ko'p. Rejalarni ortig'i bilan bajarishda rahbariyat Botirdek ishchi-xodimlariga tayanadi.

Tinib-tinchimas Botir Nurullayev haydovchilikdan tashqari bir qancha yo'nalishlarda o'qidi. Lekin, hech qachon karyerdan ketishni, boshqa joyda ishlashni xayoliga keltirmaydi. Ishdan qiy-nalgan vaqtlarida ham kasbini o'zgartirish haqi-

da o'ylamadi. "Daraxt bir joyda ko'karadi", degan naql doimo uning shiori bo'ldi. Ba'zan ish ko'pligidan tushlik qilishga vaqt topmaydi. Ekskavator kovjalari 90 tonna yuk ko'taradigan avtoag'dargichga yuklaguncha ovqatlanib oladigan vaqtlari ham bo'ladi. Shunday paytlar unga quyilib she'r ilhomini keladi:

...Tarifga so'zlar qiz yurtimga,
Tangrining tuhfasi-san Dovg'istov.
To'rt tomoni oltin konlar ichinda,
Marvarid shodasi-san Dovg'istov.

Kombinatim daraxt bo'lsa yaprog'isan.
Gar daryo bo'lsa, to'lib toshgan irmog'isan.
Manzili oyni ko'zlagan karvonim,
Koringga fido bo'lay, Dovg'istovim...

Har kundan shukronalik topayotgan Botir Nurullayevning mehnatlari kombinat rahbariyati tomonidan munosib qadrlangan. U "NKMK fax-riysi" ko'krak nishoni sohibidir.

Laylo KARIMOVA.

■ **“Navoiyuran” davlat korxonasida**

XORIIY INVESTORLAR E'TIROFI

2025-yil 16-yanvar kuni Prezident Shavkat Mirziyoyev raisligida investitsiyalarni keng jalb etish va eksportni oshirish borasidagi ishlar natijadorligi hamda kelgusidagi asosiy vazifalar yuzasidan o'tkazilgan videoselektor yig'ilishida respublikamizdagi yirik sanoat korxonalari qatori “Navoiyuran” davlat korxonasi ham 300 million dollarlik yevrobond joylashtirishi belgilangan.



Ushbu maqsadda, korxona tomonidan "S&P Global Ratings" va "Fitch Ratings" tomonidan VV- (korxona mustaqil profili BB-, barqaror kutilma) darajasi qo'lga kiritildi. Shu bilan birga, joriy yil aprel oyida "Sustainable Fitch" xalqaro reyting agentligi tomonidan korxona "ESG" reytingi 3 daraja (55 baho) bilan baholandi.

Korxonaning dastlabki xalqaro obligatsiyalarini chiqarish jarayoniga bank-anderrayter etib CITI, Abu Dhabi Commercial Bank va Natixis investitsiya banklari, moliyaviy maslahatchi etib Finasia Capitals, xuquqiy maslahatchi etib Dentons yuridik kompaniyasi va tashqi auditor sifatida "Deloitte" auditorlik tashkiloti hamkorlar sifatida tanlab olindi.

Joriy yilning 23-24-iyun kunlari London shahrida 64 ta yirik xalqaro investorlar bilan uchras-huvlar o'tkazildi.

Uchrashuvlar doirasida Yangi O'zbekistonda amalga oshirilayotgan tizimli islohotlarning natijalari, xususan "Navoiyuran" DKda 2022-2024-yil-larda olib borilgan transformatsiya jarayonlari samarali natijalari va kelgusidagi rivojlanish reja-lari yuzasidan batafsil axborot berildi,

Salohiyatli investorlar korxonaning yevro-bondlarini joylashtirish rejalarga yuqori qiziqish bildirdi. Xalqaro investorlarning yuqori qiziqishi

va bank-anderrayterlar tavsiyalarini inobatga olib, korxonaning 300 mln AQSh dollari miqdori-dagi 5 yillik yevrobondining boshlang'ich foiz stavkasi 7,250-7,375 foiz oralig'ida belgilandi va buyurtmalar kitobi ochiq deb e'lon qilindi.

Xalqaro investorlarning yirik buyurtmalari tu-fayli talab hajmi jami 93 ta investor tomonidan buyurtmalar hajmi 1,3 mlrd AQSh dollardan (talabdan 4,3 barobardan yuqori) oshganligi munosabati bilan foiz stavkasi tushirildi va ya-kuniy kupon stavkasini 6,70 foiz etib belgilash-ga erishildi.

Natijada korxonaning 300 mln AQSh dollari miqdoridagi 5 yillik yevrobondlarini 6,70 foiz ku-pon stavkasida (dastlabki foiz stavkasiga nisba-tan 0,675 foizga past) joylashtirildi.

E'tirof etish joizki, joriy yilda "Navoiyuran" DKsi London Stock Exchangeda O'zbekiston-ing korxona va tashkilotlari orasida eng past kupon stavka bilan joylashtirgan Debyut yevro-bondi bo'ldi.

Yevrobondlarni joylashtirishdan tushgan mab-lag'lar korxonaning ishlab chiqarish quvvatini oshirish, transport va texnologik parkini kengay-tirish loyihalariga, uran zaxiralarni ko'paytirish hamda xorijiy hamkorlar bilan qo'shma loyihalar uchun yo'naltiriladi.

USTUVOR VAZIFALAR BELGILAB OLINDI



Joriy yilning 8-iyul kuni “Navoiyuran” davlat korxonasida bosh direktor Djamal Fayzullaev rahbarligida korxona faoliyatining birinchi yarim yillik yakunlari va 2025-yilga belgilangan maqsadli ko'rsatkichlarning bajarilishiga oid asosiy vazifalarga bag'ishlangan kengaytirilgan videoselektor yig'ilishi bo'lib o'tdi.

Dastlab korxonaning so'nggi vaqtlarda erish-gan yutuqlariga e'tibor qaratildi. Xususan, kor-xonaning 300 million dollar miqdoridagi 5 yillik yevrobondlari 6,7 foiz kupon stavkasida joylash-tirilganligi hamda Mo'g'ulistonning Ulan-Bator shahrida korxonaning vakolatxonasini ochish bo'yicha keng ko'lamli ishlar boshlab yuborilga-ni alohida ta'kidlandi. Yig'ilishning asosiy e'tibori raqamlar ortidagi real holatni tahlil qilish, mavjud muammolarni ochiq muhokama qilish va ularni bartaraf etish bo'yicha qat'iy choralar belgilash-ga qaratildi.

Bosh direktor o'z ma'ruzasida, ayrim yo'na-lishlarda ko'zlangan natijalarga erishilmaganini ta'kidlab, kamchiliklarni ochiq ko'rsatib o'tdi. Mas'uliyatni yanada oshirish va shaxsiy javob-garlikni ta'minlash yuzasidan tegishli topshiri-q-lar berildi.

Shundan so'ng, 2025-yil oxirigacha uran ish-lab chiqarish hajmini oshirish bo'yicha ko'rilayot-gan choralar muhokama qilindi. Bosh muhandis A. Saparov ushbu yo'nalishdagi amaliy ishlar va rejalar haqida to'liq ma'lumot berdi. Ishlab chiqa-rish hajmlarini oshirish bilan birga, tannarxni ka-maytirishga alohida e'tibor qaratilishi lozimligini ta'kidladi. Taklif va fikrlar asosida amalga oshiri-ladigan ustuvor vazifalar belgilab olindi.

Muhokamarlar jarayonida ishtirok etgan tar-kibiy bo'linmalar rahbarlari yo'l qo'yilgan kam-chiliklar, ularni bartaraf etish choralari va ishlab chiqarish hajmini oshirish bo'yicha amalga oshi-rilayotgan ishlar haqida axborot berdilar. Bosh

direktor tomonidan har bir kamchilik bo'yicha mas'ullarga qat'iy topshiriqlar berildi. Bajarilishi shaxsan nazorat qilinishi belgilandi.

Shuningdek, yig'ilishda qo'shimcha yo'na-lishlar bo'yicha ham hisobotlar berildi. Ta'minot bo'yicha direktor L.Hamidov korxona ehtiyojlari uchun zarur moddiy resurslarni xarid qilish holati yuzasidan, Mehnat muhofazasi va favqulodda vaziyatlar boshqarmasi boshlig'i S.Nurnazarov ushbu yo'nalishda amalga oshirilayotgan ishlar va xavfsizlikning amaldagi darajasi haqida hiso-botlar taqdim etishdi.

Yig'ilish yakunida korxona bo'linmalari uchun ishlab chiqarish hajmlarini oshirish bilan bog'liq barcha jarayonlar, xususan, burg'ilash ishlari hajmini oshirish, investitsiya va eksport reja-larini so'zsiz amalga oshirish, geologiya-qidiruv ishlari kengaytirish, burg'ilash uskunalarini yetkazib berish, yangi qabul qilinayotgan xo-dimlarning malakasini, moliyaviy va ishlab chi-qarish samaradorligini oshirish bo'yicha joriy yilda amalga oshirilishi lozim bo'lgan vazifalar belgilab olindi.

Ko'rsatib o'tilgan chora-tadbirlarni o'z vaqtida va sifatlil amalga oshirish korxonaning ikkinchi yarim yillikda barqaror rivojlanishi hamda belgi-langan maqsadli ko'rsatkichlarga to'liq erishish uchun mustahkam asos bo'lishi ta'kidlandi. Tanqidiy ruhda o'tgan yig'ilishda har bir rahbar va mutaxassis oldiga aniq va manzillil vazifalar qo'yildi.

“Navoiyuran” DK PR xizmati.

Publitsistika

“ARSLONTOV” TILSIMLARI

Oxiri. Boshlanishi 1-betda

QAT’IYAT VA MATONAT – MAQSADGA AYLANGAN MAKON

To’rt tomoni ochiq sahro o’rtasidagi biydek dalada kungay o’rnatilgan sanoqli vagon uylar. Yoz jaziramasi avjiga chiqqan palla. Betartib garmse! esadi. Boshboshdoq garmse! cho’l va kon-dan ko’tarilgan chang-to’zonni tinimsiz “shopir”gan bo’ladi. Pastu baland toshloq do’nglik va kengliklar tepasida quyosh otashin nafasini ufriradi. “Arslontov” koni boshlig’i Oybek Habibullayev eski qadrdonlarini ko’rgandek quyug’o’rashadi. Xayolimga boboming: “Tog’u toshda begonasi jo’ql”, degan gapi keladi. Rosti, tog’u toshda yurgan kishilarning bosh-qalarga mehri bo’lakcha bo’ladi. Lablari jazirama ta’sirida qovjiragan, qalbid a-donishmandlarga xos fikrlar g’ujig’on o’yna-yotgan kon boshlig’i bilan tanishgan bo’lamiz. U kishi bizni vagon uylardan biri tomon boshlaydi - konchilar an’anasiga ko’ra, bizga xavfsizlik texnikasi talablari borasida qisqacha ma’lumot berlarkan. An’anani esa buzib bo’lmaydi.

Konda amalga oshirilayotgan ishlar-ga, unda ishlovchilarning zahmatli mehnatiga qiziqib kelmaganmizmi, biz ham kon boshlig’iga ergashdik. Cho’l - kun-gay maydoni. Kungayda kun kuydirar, deb yengni yopuvchi maxsus kiyim kiyib, boshga kaskani qo’ndirib oldik. Endi be-malol konga tushsak bo’ladi.

– Konimizdagi ma’danlar juda murak-kab kon-geologik tuzilishga ega ekanligi bois ularni qazib olishga tayyorlashda burg’ilash va portlatish ishlariga alohida e’tibor qaratilmoqda, – deydi kon bosh-lig’i Oybek Habibullayev. – Hozirda kon tarkibida “Daykali”, “Baxtli”, “Dolomit-li”, “Qorator” va “Qumsoy” kar’erlarida qazish ishlari olib borilmoqda. Buning

uchun 50 ga yaqin og’ir kon texnikalari – burg’ilash uskunalari, buldozer, eks-kavator, avtoag’dargich va yuklagichlar tunu kun tizimli ravishda ishlamoqda. Qazib chiqarilayotgan ma’dan esa 325 kilometrlik temir yo’l orqali 1-gidrome-tallurgiya zavodiga qayta ishlash uchun tashlilyapti.

Har kimning rizqi har joyda bo’ladi. Oybek Habibullayev va bu yerda mehnat qilayotgan 255 nafar kishining rizqi Qizil-qumning naqd markazidagi “Arslontov” koniga sochilgan. Ular 24 soat davomida almashib-almashib konda ma’dan qaziy-di, tashiydi.

Konga kirib kelarkanmiz, ust-boshi changga bulangan yosh yigitlar e’tibori-mizni tortdi. Ularning aytishicha, konda yiliga 1 million 800 ming tonna oksidli oltin tarkibli ma’dan qazib olinmoqda. Demak, reja bajarilmoqda.

– Ishlab chi-qarish jarayoni so’nggi texnolo-giyalar asosida to’liq raqamlash-tirilganligi ish sa-maradorligining oshishiga xizmat qilyapti, – deydi yosh mutaxassis, kar’er bosh muhandisi Maqsud Bozorov.

KONCHINING QUROLI – MEHNATDIR!

Konchilar bilan suhbatlashib bo’lgach, tushlik mahal bo’lib qolgani uchun osh-onaga yo’l oldik. Chunki, cho’lning jazi-ramasida taom tayyorlash ham, uni saq-lash ham osonmas. Yengli konstruksiyali oshxonada ikki xil taom tanovul qildik.

Turli restoranlarga borganmiz, rang-ba-rang taomlar yeganmiz, lekin konchilar oshxonasida pishgan bu taomni bir umr unutmasak kerak. Sababi, taomlarning hamma masallig’lari alohida-alohida qo-zonda pishiriladi. Ham oson, ham jazira-mada rohatijon.

Dasturxon atrofida Oybek Habibulla-yev bilan suhbat qurdik. Uning aytishicha, konchilik o’zi tanlagan kasb. Maktabni bitirib, shu ishga qiziqqan Oybek Navoiy davlat kon-chilik institutiga o’qishga kiradi. Umrining 25 yilini konchilikka ba-g’ishlagan ham-

porlab, kelajakda farzandlarini universitetlarda o’qitishi-ni, ularning katta-katta shaharlarda yasha-shini, bu maqsad har doim o’zi bilan ekanini ta’kidlay-di. Biroq qiziq-qanidan kon-chilikni



tanlasa ham, qar-shiligi yo’q.

Gap gapga ula-nadi, suhbat qiziy-di. Orada 2-3 choy-nak choyini bo’shatdik.

Bu choyning ta’mi oldida manaman degan xitoy choy-lari ham ortda qoladi. Qizilqum-ni otashnafas quyoshi ostida kam-suqum va kamgap konchilar davrasida qaynoqqina choyini simirishning gashti bo’lakcha.

Kun qizigandan qizib, quyosh lahza sayin yerga yaqinlashib boradi. Kaska va maxsus kiyim tanamizni jaziramadan, o’pkamizni garmselning nafasidan asray olmaydi. Kon qo’ynida texnikalarning ti-nimsiz harakatiyu ularning motoridan chiqayotgan tovushlar eshitiladi. Arslon-tovlik konchilar – to ko’zingiz nuri yet-guncha cho’zilgan bepoyon cho’lning ya-gona hojasi. Aslida his etganga bu ham baxt, shunday emasmi?

– Ana, yangi smenada ishlaydigan-lar kelyapti, – deydi kon boshlig’i ilon iz

yo’ldan kelayotgan uch-to’rt-ta avtoulav chiroqlariga ishora qilib. Bir lahza ilang-bilang kelayot-gan “chiroq”larni ko’zatgan bo’ldik. Kon boshlig’idan konchilar turli viloyatlardan ke-lib, vaxta usulida ishlashini, ham-ma ishchilar va muhandis-texnik xodimlar yotoqxo-na bilan ta’minlan-ganini, har kuni 45 kilometr masofada joy-lashgan Uchquduq shahri-dan qatnab ishlashini bilib oldik. Soat millari ham 19.00 dan o’tib qoldi. Ha demay safarimiz qariydi. Qaytish haqida-gi o’y esa ko’ngilni o’rtaydi. Lekin, nailoj, mehmonga yo’l yaxshi. Vaqtning boridan esa unumli foydalanmoq kerak.

Yana xayol olib ketadi: makoni aniq, rizqi o’zi bilan, oilasi uzoqda, to’rt mucha-si talafot ko’rmagan odam - Oybek Ha-bibullayevda ham muammo bormikan? Shu savolni beraman.

XIRA TORTGAN YULDUZLAR

